

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA MADANIYAT VA SAN’AT
SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARDAN**

Saparbaev Azamat

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Nukus filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning ijtimoiy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga, qabul qilingan qarorlar va amalga oshirilgan dasturlarni tahlil qilib, madaniyat va san’atni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarni bayon etadi. Ayniqsa, milliy madaniyatimizni rivojlantirish bo‘yicha qilingan chora-tadbirlar, shuningdek, bu jarayonlarning yoshlar uchun naqadar ahamiyatli ekanligi haqida ham qisqacha ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: madaniyat va san’at, qoraqalpoq yoshlari, ijodiy jarayonlar, milliy madaniyat, islohot.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakatning turli joylarida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Madaniyatning rivojlanishi faqat san’atni rivojlantirish bilan cheklanmay, milliy qadriyatlarimizni saqlash va kelajak avlodlarga etkazish kabi mas’uliyatli vazifalarni ham o‘z ichiga oladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan madaniyat va san’at sohasida yangi bosqichga o‘tildi, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ko‘plab madaniy tadbirlar va dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada ushbu islohotlarning umumiy holati va ular orqali erishilgan yutuqlar tahlil qilinadi.

Tariyximiz, o‘tmishimiz, madaniyatimiz barchasi ajdodlardan qolgan merosdur. O‘zbekiston qahramoni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibrayim Yusupov aytganlaridek:

Shuncha qatol surginlarda yo‘qolmasdan

Shu kunlarga yetganingga qoyilman – degenlaridek asrlar bo‘yi millatimizning tayanchi bo‘lgan tili, milliy kiyimlaridan tortib, madaniy meroslari qanaqa qilib buzbutun bizga yetganiga tasonnalar, chukronalar aytilsa arziydi.

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li (1824–1878) tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi qarorni imzoladi. Ta'kidlanganidek, davlatimiz rahbarining joriy yil 16 iyuldagi "Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori va uning YUNESKOning xalqaro yubileylar rejasiga kiritilgani qalblarga faxr tuyg'ularini baxsh etmoqda.

Hujjatda qayd etilishicha, [Ajiniyoz](#) "o'zining betakror va sermazmun ijodi bilan madaniyat va adabiyotni rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi azaliy do'stlik va og'izbirchilikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shgan. Hassos shoirning she'r va dostonlarida aks etgan gumanistik falsafiy qarashlar el-yurt qalbidan chuqur joy egallagan.

Xivadagi Sherg'ozixon va Qutlimurod inoq madrasalarida tahsil olgan "bu ulug' siymo nafaqat mamlakatda, balki butun mintaqada xalqchil shoir, yetuk muallim va ustoz, mohir xattot sifatida shuhrat qozongani ayniqsa e'tiborga molikdir. Uning go'zal asarlari turkman, qozoq, qirg'iz va boshqa qardosh xalqlar tomonidan ham sevib o'qilmoqda", deyiladi qarorda.

Bu qaror tezda o'z samarasini ko'rsatti. Qoraqalpoq madaniyat va san'ati sahosida keng ko'lamda amalga oshiriliyatgan ishlar benihoya biz yoshlarni xursand qilmoqda. Aytib o'tish joizki, Turkiyaning Istanbul universitetida Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li tavalludining 200 yilligiga bag'ishlangan "Ma'naviy olam kuychisi" mavzusida amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Bu konferensiyaga mening ustozim, Qoraqalpoq xalq baqshisi Gulbaxar Aximbetova qatnashib, so'zga chiqib: buyuk klassik shoirimiz Ajiniyozning umr yo'li, ijod na'munasidan Turkiyadagi yoshlarga, barsha qiziquvchan insonlarga gapirip bergan. Shuning barobarinda bunday tariyxiy voqeani ustozim qo'lindagi qoraqalpoq milliy musiqa cholg'usi bo'lgan dutor bilan Ajiniyoz shoirning "Ellerim bor edi" qoshig'in ijro qildi. Bunday ajoyib voqealik butkul Qoraqalpog'iston xalqiga kush bag'ishladi desak adashmagan bo'lamiz.

Tadbirda "Turksoy" xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti bo'lim boshlig'i Sanjar Mo'lazimo'g'lu, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Rasul Zarikeyev so'zga chiqib, o'tkazilayotgan tadbirning ahamiyatiga keng to'xtalgan.

Shuningdek, Istanbul universiteti va Qoraqalpog'istondan tashrif buyurgan olimlar so'zga chiqib, buyuk shoirning adabiy merosi, uning turkiy xalqlar adabiyoti va madaniyatida tutgan o'rni haqida ma'ruzalar qilishdi. Chuningdek Vazirlar

Mahkamasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Madaniyat va san‘at sohasini hamda madaniy turizmni rivojlantirish maqsadida “2021-2024-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar” Dasturi tasdiqlandi.

Dastur quyidagilarni nazarda tutadi:

- Ta‘lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish;
- muzeylar, teatrlar va ijodiy jamoalar faoliyatini yanada rivojlantirish;
- madaniyat markazlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va faoliyatini rivojlantirish;
- madaniy-ma‘rifiy, targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish.

Muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan biz qoraqalpoq xalqining boy tariyxi madaniy meroslari jahon sahnalarida keng targ‘ib qilindi. Yurtboshimiz aytganlaridek: “Biz bir bo‘lsak yagona xalqimiz, birlashak Vatanimiz” deganlaridek mehr avvalo bir-birimizga hurmat-etibordan boshlanadi. Ilim-fan, madaniyat bor joyda kelajak bo‘ladi. Bu dasturlar o‘z samarasin berib, xalqimizni dunyoga mashhur qilsa ajab emas.

Madaniyat markazlari faoliyatini tubdan isloh qilish jarayonlari yuzasidan Qoraqalpog‘istonda ham bir qancha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mo‘ynoq tumani markazida Yoshlar markazi, Madaniyat va dam olish parki, muzika va san‘at maktabining faoliyat yurtishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 264-son qarorining natijasi hisoblanadi.

Hozirda Mo‘ynoq tumani aholisiga va yoshlariga madaniy xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilandi. Madaniyat markazi o‘z faoliyatini boshlaganidan to bugungacha aholining ehtiyojlarini qondirish va bo‘sh vaqtlarining mazmunli o‘tishini ta‘minlashda samarali faoliyat yuritdi. Ammo aytish joiz, bu ishlar mavsumiy olib boriladi, bizga ma‘lum ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar uzluksiz amalga oshirilishi kerak. Shunki qish oylarida tanafus bo‘lishi madaniyat markazlarining ish faoliyatini sustlashtiradi. Qolabersa aholining ushbu vaqtlarda bo‘sh payti ansha ko‘p bo‘ladi. Shu sabab ayniqsa qish mavsumida ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvoffiq deb o‘ylaymiz.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: “Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san‘at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma‘noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir” – degan

edi. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim”.

Darhaqiqat insoniyat ma’naviyati va tafakkuri rivojlanishi madaniyat va san’atsiz kechmaydi. Mamlaktimizda ham bu soha turli sabablar bilan yuksalish va depsinish davrini boshidan o‘tkazib keldi. Lekin so‘nggi yillarda mazkur sohalarni rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarish yuzasidan hukumatimiz tomonidan tub o‘zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Eng quvonarlisi, butun yer kurrasiga kelgan balo — pandemiya sharoitida ham yurtimizda madaniyat va san’atga bo‘lgan e’tibordan chetda qolmadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa yosh avlodni tarbiyalashda va milliy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Madaniyat markazlari, teatrlar, muzeylar va ijodiy jamoalar faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, madaniy turizmni qo‘llab-quvvatlash, nafaqat xalqning ma’naviy saviyasini oshirishga, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qilmoqda. Turli davlatlar bilan hamkorlik, shuningdek, xalqaro miqyosda madaniy tadbirlar o‘tkazish, qoraqalpoq xalqining boy madaniy merosini dunyoga tanitishda muhim qadam bo‘lmoqda. Islohotlarning samaralari yaqin kelajakda yanada sezilarli bo‘lib, mamlakatni xalqaro madaniyat sahnasida o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kknews.uz/oz/221402.html>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/07/17/ajiniyaz/>
3. <https://kun.uz/28623692>
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston. 2021, 464b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020. Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.<https://president.uz//uz/lists/view/4057>.
6. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 2.9 (2023): 19-23.
7. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND

- ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.9 (2023): 7-10.
8. Abatbaevna, Saparbaeva Gulshira, and Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich. "History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan." (2023).
 9. ЮЛДАШЕВА, Манзура, and Асылбек КОЛКАНАТОВ. "ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ." *Journal of Culture and Art* 1.1 (2023): 16-20.
 10. Юлдашева, Манзура, and Асылбек Колканатов. "OILAVIY DAM OLISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY VA MADANIY MARKETING." *Scientific journal of the Fergana State University* 3 (2022): 6-6.
 11. Yuldasheva, Manzura, and Asilbek Qolqanatov. "O 'ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 254-260.
 12. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH* 2.11 (2023): 67-69.
 13. Kalkanatov, Asilbek, Shahabatdin Makhamatdinov, and Islam Urazbaev. "ACTIVITIES OF NEW KARAKALPAKSTAN CULTURAL CENTERS: REFORM AND ANALYSIS." *Art and Design: Social Science* 3.01 (2023): 1-4.
 14. Alfiya, Qolqanatova. "Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi." *Journal of Creativity in Art and Design* 1.2 (2023): 16-20.
 15. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
 16. Nazarbaevna, Qolqanatova Alfiya, and Kojalepesov Sultanbay Serjanovich. "The Importance of Scenario in Cultural Events." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 4.2 (2024): 259-262.
 17. Yuldasheva, M. B., and A. N. Qolqanatov. "KADRLAR POTENSIALI IJTIMOIIY-MADANIY SOHADA TASHKILOT FAOLIYATI

SAMARADORLILIGINI OSHIRISHSHNING YETAKCHI OMILI
SIFATIDA." *Inter education & global study* 8 (2024): 58-68.

18.VA, INSONGA E'TIBOR, and SIFATLI TA'LIM YILI. "Imom Buxoriy
saboqlari."